



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KONSENTRATSIYA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH: TAJRIBA VA TADQIQOTLAR SHARHI

Qo‘qon universiteti Andijon filiali tadqiqotchisi

Israilova Xusnida Adilovna

E-mail: israilovaxusnida@gmail.com

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15229297>

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirish pedagogik zaruriyat ekanligi, muammo doirasida olib borilgan izlanishlarning pedagogik tadqiqi, shuningdek bolalarda intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda konsentratsiyaning o‘rni xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: konsentratsiya, diqqat, maktabgacha yosh davri, intellekt, qobiliyat, kognitiv rivojlanish, o‘yin, tadqiqot, kamolot.

Bugungi kunda respublika ta‘lim-tarbiya tizimining boshlang‘ich poydevori bo‘lgan maktabgacha ta‘limni sifatli va zamon talabi darajasida tashkil etilishini ta‘minlash borasida keng qamrovli islohotlar, qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “...maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, bolalarni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish” vazifalari maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qarorida belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganidek, “... bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo‘lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. ... Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta‘lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – maktabgacha ta‘lim muassasasi yoshidagi har bir bolani ushbu ta‘lim yo‘nalishi bilan to‘liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat”.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” va “Ilk qadam” Davlat dasturining ishlab chiqilishi uzluksiz ta‘lim tizimida maktabgacha ta‘limni samarali amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Albatta maktabgacha ta‘limni ham shaklan, ham mazmunan yangilashga qaratilgan bu kabi islohotlar ota-onalardan tortib barcha pedagoglar bola tarbiyasi, uning ta‘lim olishga tayyorgarligiga zamon talablaridan kelib chiqqan holda yondashuvini talab etadi.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- go‘daklik (tug‘ulgandan 1 yoshgacha);
- erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- o‘rta maktabgacha yosh (4 yoshdan 5 yoshgacha);
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
- maktabgacha tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

Mazkur tadqiqot doirasida maktabgacha tayyorlov yoshidagi (6 yoshdan 7 yoshgacha) bolalar tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi.

Ko‘plab izlanishlarda maktabgacha yoshdagi bolalardagi konsentratsiya qobiliyati ulardagi bir qator qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos bo‘lishi ta‘kidlab o‘tilgan. Shunday tadqiqotlardan birida maktabgacha ta‘limda bolalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish jarayoni ularning aqliy rivojlanishi, turli ruhiy jarayonlar – diqqati, axborotni tushunishi, mulohaza yurita bilishi, idrok etish, ma‘lumotlarni esda saqlash, fikrlash va muammoni hal qila olishi bilan tavsiflanishi keltirib o‘tilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda konsentratsiya qobiliyati ularning kognitiv rivojlanishi



uchun muhim shart-sharoit vazifasini o'taydi. Sh.Xo'jamberdieva o'z tadqiqotida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali kattalar bilan muloqot qilishdan zavq olish, o'qib berilayotgan asarni qiziqish bilan, diqqat bilan tinglash; asardan chalg'imaslik, takroriy tinglanayotgan tanish asarlar (ertak, hikoya va she'rlar)ni o'rganishda qahramonlarni illyustratsiya va o'yinchoqlar orqali nomlarini ayta bilish; badiiy asarlar mazmunini so'z, harakat, imo-ishorlar orqali ko'rsatib bera olishi; tanish she'rlardagi so'zlar va qatorlarni eslab qolish asosida o'z nutqida ifoda eta olishga intilish; kichkintoylarga mo'ljallangan kitoblardagi illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishga qiziqish bildirish kabilarda namoyon bo'lishini keltirib o'tgan. Ta'kidlash lozimki, bolalardagi hikoya va ertaklarni tushunishi, anglashi, so'zlab berishi ularning kontsentratsiya qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik zarurati maktabgacha ta'lim pedagogik amaliyotida yangi yondashuvlar, texnologiyalarning keng va izchil joriy etilishi bilan izohlanadi. Z.M.Ashurovaning tadqiqoti maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasini tadbiiq etishga doir bo'lib, bundan asosiy maqsad bolalarda tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tadi. STEAM texnologiyasi markazida muammoli vaziyat turadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatida: diqqatni faoliyatga qaratish; tanqidiy fikrlash; o'z fikrini mustaqil va aniq bayon eta olish; hamkorlikda ishlay olish; fazoda fikrlash; konstruktorlik faoliyatiga oid ko'nikmalar; tabiatni sevish va undagi hodisalarning o'zaro bog'liqligini tushunib anglash; estetik didning shakllanganligi; texnik faoliyatga qizish; mantiqiy amallarni tushunish ko'nikmalari vujudga keladi.

B.X.Isaqulova o'zining didaktik o'yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish metodikasini takomillashtirish borasidagi tadqiqotida didaktik o'yinlarning xususiyatlarini tahlil qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish jarayonida ahamiyatli bo'lgan quyidagi xususiyatlarni aniqlashtiradi. Jumladan, didaktik o'yinlar bolalar faoliyatining ruhiy jarayonlarini (sezgi, idrok, fikrlash, tasavvur, xotira, ye'tibor, nutq, harakat) faollashtirishini keltirib o'tadi. Demak, didaktik o'yinlarning pedagogik samaradorligi bolalar faoliyatining ruhiy jarayonlari, jumladan kontsentratsiya qobiliyati bilan uzviy bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda loyihalash kompetensiyasining rivojlanishi ham ulardagi kontsentratsiya qobiliyati bilan bog'liqlikda rivojlanadi. Loyihalash (lat. projectus – oldinga tashlangan) – amalga oshirish natijasida yangi mahsulot namunasi va uni olish usul, metod va texnologik ketma-ketligi yaratiladigan intellektual harakatlar majmui. D.D.Zuparova o'z tadqiqotlari natijasida, maktabgacha katta yoshdagi bolalar loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish bolalarni loyiha faoliyati orqali tahliliy **fikrlashga** o'rgatib borish ularning kelajakda barkamol inson bo'lib shakllanishi uchun sharoit yaratishini ta'kidlab o'tgan.

Bolalarda kontsentratsiya qobiliyatining rivojlanishi ularda ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirishga ham ta'siri kuchli. G.A.Ruzieva o'z tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy intellektni rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Bolalarning “ijtimoiy intellekti – bu atrofdagi olamni, dunyoni samarali idrok etish va anglash uchun imkoniyat yaratadigan individual bilim tajribasini tashkil etishning o'ziga xos shakli. Ijtimoiy intellektual tarbiya atrofdagi dunyo haqidagi mavjud bilimlarning o'zaro ta'sirini anglatishni, ularni tizimlashtirishni, qiziqishlarni, ko'nikmalarni, xotirani, idrokni, fikrlashni, ya'ni barcha aqliy qobiliyatlarni shakllantirishni va rivojlantirishni o'z ichiga oladi”. Pedagogik kuzatishlar, ijtimoiy odob-axloq me'yorlaridan og'ish kuzatilgan bolalarda diqqat yetishmovchiligi, diqqatini bir joyga to'play olmasligi kabi holatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyati kundalik-hayotiy faoliyatda ularning kuzatuvchanligida ham namoyon bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning muloqotiga doir tadqiqotda A.Isaboeva bolalar “atrofdagilarga taqlid qilgan holda nafaqat to'g'ri talaffuzni, so'zni qo'llash, iboralar tuzish sirlarini, balki kattalarda uchraydigan nutq nomukammalliklarini ham o'zlariga qabul qilib oladilar” degan xulosaviy mulohazani keltirib o'tgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalardagi intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik sharti, ta'lim faoliyatlari jarayonida erkin ijodiy muhitning yaratilishi, tarbiyachilar va bolalarning birgalikdagi munosabatlari va o'zaro hamkorlikdagi harakatiga



asoslangan o'qitish jarayonini yo'lga qo'yishdan iboratligini ilmiy jihatdan asosladi. Tadqiqotchi F.Shermonova bilvosita hozirgi globallashuv davrida bolalar avvalgiga nisbatan ko'p axborot iste'mol qilishiga e'tibor qaratib, “bola ta'lim-tarbiya jarayonida o'z bilim va imkoniyatlari darajasini bilib yurishi, axborotlarni qabul qilishi, saralashi, qayta ishlashi, ulardan keladigan ijobiy natija va oqibatlarni diqqat markazida tahlil qila olishi, boshqalarning fikr-g'oyalarini idrok qilishi, o'z barqaror nuqtai nazariga ega bo'lishi, o'z g'oyalarini boshqa g'oyalarga taqqoslashni o'rganishga majburligi hozirgi elektron asr – XXI asr talabiga aylandi” deya ta'kidlab o'tadi. Bolalardagi me'yordan ortiq axborot iste'moli ularning kontsentratsiya qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mazkur tadqiqot ishida ko'rsatib o'tilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlanishi diqqat tushunchasini qamrab oladi. Bu esa diqqat tushunchasini ilmiy tadqiq qilishni taqozo etadi. Diqqatni shakllantirish sharti, albatta, faoliyat maqsadining mavjudligidir. Bolalarda avval noixtiyoriy e'tibor shakllanadi, undan keyin esa, bolalar rivojlanishi jarayonida ixtiyoriy, jamlangan e'tibor paydo bo'la boshlaydi. Ixtiyoriy diqqat genezisining to'rt bosqichi quyidagicha tavsiflanadi:

Birinchi bosqich boshqa bolalar, ko'pincha kattalar, belgilangan vositalardan foydalangan holda, bolaning xatti-harakati va ongini nazorat qilish, uning bevosita, ixtiyoriy harakatlarini, shu jumladan noixtiyoriy e'tiborni amalga oshirishga qaratilgan vaziyat bilan bog'liq.

Ikkinchi bosqichda bolaning o'zi subyektivlikka ega bo'lib, e'tiborni boshqa shaxsning harakatlari va ongini boshqarish uchun psixologik vosita sifatida ishlatadi.

Uchinchi bosqichda bola o'ziga nisbatan boshqa odamlar tomonidan ilgari qo'llanilgan ong va harakatlarni boshqarish usullaridan foydalanishga harakat qiladi va ularni ularga nisbatan takrorlaydi. Takidlash kerakki, uchinchi bosqichda diqqatni boshqarish harakatining interiorizatsiyasi sodir bo'ladi va u to'rtinchi bosqichda yakuniy shaklga ega bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kontsentratsiya qobiliyatini rivojlanish holatini aniqlash pedagogik qobiliyatni taqozo etadi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyatlar tarkibiga pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi.

Maktabgacha yosh davrining inson kamoloti keyingi rivojlanishidagi, bolani maktab ta'limiga tayyorlashdagi alohida roli maktabgacha ta'limning maqsadini belgilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish metodlari va tashkiliy shakllarini o'ziga xos mazmunini ishlab chiqishni, bolalarni har tomonlama kamolga yetkazishga o'qitishning rolini tadqiq qilish zarurligini shart qilib qo'ydi. Bu esa maktabgacha ta'lim didaktikasi sohasining yaratilishiga olib keldi.

Hozirda insonlarda kislorod yetishmovchiligi sezilishi kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning oqibatida insonlarda xotira va fikrlash qobiliyati pasayadi, inson asabiy bo'ladi. Inson organizmi bunga moslanmagan. Ko'p kasalliklar kislorodga to'yinmaslik natijasida kelib chiqadi, immunitet pasayadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham xonalardan ko'ra hovlida, tabiat qo'ynida mashg'ulot tashkil etilishi bolalar kayfiyatini ko'taradi hamda ularda diqqatni bir joyga to'plash qobiliyati rivojlanadi. Bolalar organizmi kislorodga to'yinadi va buning natijasida ularda miya ishlash funksiyalari me'yorlashadi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida bolalarda kontsentratsiya qobiliyatiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilar ekanligi ta'kidlab o'tilgan:

- hissiy holat. Agar bolalar ijobiy hissiy holatda bo'lsa, diqqat va e'tiborni jamlash oson kechadi. Aks holda, tushkunlik, salbiy kayfiyat paytida konsentratsiya kamayadi;
- jismoniy holat;
- motorik faoliyat;
- atrof-muhit sharoitlari (masalan, ommaviy axborot vositalari ta'siri);
- ovqatlanish;
- uyqu.

Keltirib o'tilgan omillar bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqaga ega bo'lib, barcha omillar



birgalikda bolalardagi konsentratsiya qobiliyatining me'yorda rivojlanishini ta'minlaydi.

Bolalarning kundalik-amaliy faoliyati ko'plab bilimlar, ko'nikma va qobiliyatlarni egallashi bilan tavsiflanadi. Bolalak davri o'rganishning intensiv davri hisoblanadi. Bu davrdagi o'rganish kuzatish, sinab ko'rish va tajriba orttirish bilan o'ziga xoslikka ega. Bu jarayonlarning intensivligi va samaradorligi ko'p jihatdan bolalarning konsentratsiya qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

Diqqatni jamlagan inson butun aqliy qobiliyatini ayni vaqtda talab qilinadigan yoki kerakli faoliyatga yo'naltiradi. Konsentratsiya ko'plab ilmiy adabiyotlarda “konsentratsiya qobiliyati” shaklida qo'llaniladi. Konsentratsiya qobiliyati inson diqqatini jamlash orqali ma'lum bir faoliyat yoki maqsadga qanchalik samarali va vaqt davomida e'tiborini qarata olishini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi konsentratsiya qobiliyatiga ega bo'lgan har bir inson ko'p vaqt sarflamagan hamda ortiqcha yuklama his qilmasdan diqqatini jamlashi mumkin.

Bolalarda konsentratsiya qobiliyatining rivojlanishida so'g'lom taomlanish va harakat muhim ahamiyatga ega. Kam harakat qiladigan bolalar, tinch o'tirmasligi yoki biror narsaga diqqatini jalb qila olmasligi mumkin. Jismoniy harakatlar bolalarda konsentratsiya qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalar bilan tabiat qo'yniga sayohatga chiqish ularga ijobiy ta'sir ko'rsatib, konsentratsiya qobiliyatini yaxshilaydi. Bolalarda to'yib ovqat yemaslik yoki yetarli koloriyadigi mahsulotlar iste'mol qilmasligi ularning konsentratsiya qobiliyatini yomonlashishiga sabab bo'ladi. Mevalar va sabzavotlar iste'mol qilinishi ijobiy ta'sir kuchiga ega bo'lsa, shakar, yog'li mahsulotlar salbiy ta'sirga ega.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, konsentratsiya muhim bir psixik jarayon, u odamning barcha faoliyatlarida ishtirok etadi. Eng sodda faoliyatda ham (masalan, payafzal bog'ichini boylashdan tortib), eng murakkab faoliyatni ham (o'qish, yozish kabi) konsentratsiyaning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 18-sentyabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3955-son Qarori// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-3923110>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 29 dekabr 2020 yil// <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
3. O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi 1450-sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi Buyrug'i / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018 y., 10/18/3032/1450-son.
4. O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi. –T.: 2018.
5. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining “O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi buyrug'i // 2018 yil 18 iyundagi 1-mh-son buyrug'i.
6. Ashurova Z.M. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanishning didaktik mexanizmi: pedagog. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati. – Buxoro, 2023. – B. 17 (52).
7. Баскакова И.Л. Внимание дошкольника, методы его изучения и развития. Изучение внимания школьников. – М.: Издательство “Институт практической психологии”, Воронеж: “МОДЭК”, 2010. – 64 с.